SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma’lumot)*

# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma’lumotlaga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 29 012,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,6 % ni tashkil etdi.












**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (23 232,5 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (13 974,7 ming so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.











## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari
## (2023-yil yanvar-noyabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib 27 945,0 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so‘m




2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (46,3 %), Jomboy tumani (9,0 %), Urgut (7,6 %), hamda Samarqand (6,4 %), tumanlari hissasiga tog‘ri keldi. Shuningdek, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung‘ur tumanida (110,2 %), Qo‘shrabot tumanida (107,7 %) hamda Oqdaryo tumanida (106,0 %) kuzatildi.

FHI, %




Ulushi, %



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

### 2023-yil yanvar-noyabr oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, Ishlab chiqarish 6,5 % ga hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 28,1 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 23,7 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 39,9 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 321,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 0,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali 16,3 % (14,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali 19,6 % (20,1 %) va quyi texnologiyalisi 59,4 % (61,1 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi 11,4 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 22,1 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 38,7 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-noyabr | 2023-yil yanvar-noyabr | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 143,3 | 46,8 | - 96,5 |
| Paxta tolasi, ming t. | 50,2 | 55,4 | 5,2 |
| Tozalangan paxta yog‘i ming tonna | 15,1 | 22,6 | 7,5 |
| Konyak spirti – ming litr 100 % spirt | 268,0 | 430,2 | 162,2 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g. (buxanka), tonna | 558,9 | 633,0 | 74,1 |
| Uzum vinosi - ming litr | 31,5 | 17,1 | -14,4 |
| Aroq – ming litr 100 % spirt | 117,5 | 31,4 | - 86,1 |

*2023-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka), 633,0 tonna (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 13,3 % ga ko‘paygan), 46,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (68,7 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.*

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

*(2023-yil yanvar-noyabr oylarida)*

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar tomonidan jami 3 015 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 18,2 % ga kamaygan.





| | | |
|---|---|---|
| 2023-yil | 3 015 dona | 81,8 % |
| 2022-yil | 3 686 dona | 91,1 % |
| 2021-yil | 4 047 dona | 97,5 % |

## Avtobuslar ishlab chiqarish

*(2023-yil yanvar-noyabr oylarida)*

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-noyabr oylarida 776 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 31,0 % ga kamaygan.





| | | |
|---|---|---|
| 2023-yil | 776 dona | 69,0 % |
| 2022-yil | 1 125 dona | 132,8 % |
| 2021-yil | 847 dona | 144,0 % |

## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 140,0 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga koʻra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,4 % gacha koʻtarilib, fizik hajm indeksi esa 106,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 174,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 93,8 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,7 % gacha koʻtarilgan, fizik hajm indeksi esa, 93,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 030,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 103,2 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,5 % gacha koʻtarilib, fizik hajm indeksi esa, 112,6 % ni va ishlab chiqarish ajmi 7 959,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati



2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 158,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 372,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 112,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 168,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,6 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 91,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 748,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish






2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 89,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 140,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 337,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish






2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 190,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 357,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish






2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 136,8 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 123,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 746,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 130,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 120,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 698,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 120,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 122,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 820,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 13,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,2 %, fizik hajm indeksi 77,6 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 3 124,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 529,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 60,1 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-noyabr | 2023-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 471 270,1 | 194 817,7 | - 276 452,4 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 5 370 059,0 | 4 433 167,6 | - 936 891,4 |

*(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*)*



Elektroenergiya

Issiqlik energiyasi









* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

# Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 216,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-noyabr | 2023-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m* | 35 511,4 | 47 225,4 | 11 714,0 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m* | 93,3 | 105,4 | 12,1 |
| Plastmassa chiqindilari, *tonna* | 929,9 | 2 524,7 | 1 594,8 |

*(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*)*



Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m









* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

# Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib 31,8 %, shuningdek, Toyloq 14,4 %, Urgut 12,1 % ni hamda Samarqand tumanlarida 10,2 % ni tashkil etdi










Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2 237,7 ming so‘m bo‘lgan holda, Samarqand shahrida 5 107,6 ming so‘mni, Toyloq 6 162,2 ming so‘mni, Jomboy 4 405,4 ming so‘mni va Samarqand tumanlarida 3 522,8 ming so‘mni tashkil etdi.

yanvar-noyabr
ming so‘m

2023-yil 2 237,7

2022-yil 3 836,4

2021-yil 3 146,0



yanvar-noyabr
o‘sish sur'ati

2023-yil 98,1 %

2022-yil 116,8 %

2021-yil 108,5 %



Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 291,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,1 %, jami sanoatdagi ulushi 32,0 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari





51,2 %

**2023-yil yanvar-noyabr**



36,6 %

**2022-yil yanvar-noyabr**

2023-yilining yanvar-noyabr oylarida viloyatda 4 568,4 milliard so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 4,1 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o‘tacha iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda Ishtixon (121,5 %), Oqdaryo (117,9 %), Jomboy (117,4 %) hamda Samarqand tumanlarida (109,7 %) korxonlari tomonidan yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.



## Nooziq-ovqat mahsulotlar





48,8 %

**2023-yil yanvar-noyabr**



63,4 %

**2022-yil yanvar-noyabr**



Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 51,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 48,8 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida iste’mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘sish sur’ati 104,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o‘sish sur’ati 98,3 % ni tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’atlari

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulush Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 37,3 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 14,7 %, Toyloq 14,3 %, hamda Samarqand tumanlari 8,2 % ni tashkil etdi.







Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulush Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 26,5 % ni, shuningdek, Toyloq 14,6 %, Jomboy tumanlarida 13,7 % ni tashkil etdi.

yanvar-noyabr
mlrd. so‘m

| | |
|---|---|
| 2023-yil | 4 754,1 |
| 2022-yil | 5 708,2 |
| 2021-yil | 4 776,3 |

51,2 %

Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-noyabr
o‘sish sur’ati

| | |
|---|---|
| 2023-yil | 104,1 % |
| 2022-yil | 119,4 % |
| 2021-yil | 118,0 % |



## Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2023-yil 1-dekabr holatiga koʻra)*

Bugungi kunda viloyatda 6 321 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 1 233 tasi (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar umumiy sonining 19,5 %) Samarqand shahriga, 853 tasi (13,5 %) Urgut, 625 tasi (9,9 %) Samarqand, 503 tasi (8,0 %) Pastdargʻom va 379 tasi (6,0 %) Ishtixon tumanlariga toʻgri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

**1 168 ta**

2023-yil yanvar-noyabr

**1 561 ta**

2022-yil yanvar-noyabr

**1 806 ta**

2021-yil yanvar-noyabr



Jami faoliyat yuritayotgan

**6 321 ta**

2023-yil 1-dekabr holatiga

**8 817 ta**

2022-yil 1-dekabr holatiga

**7 991 ta**

2021-yil 1-dekabr holatiga



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 958,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,7 % ni tashkil etdi.

yanvar-noyabr
mlrd. so‘m

2023-yil 11 518,6

2022-yil 8 527,2

2021-yil 7 393,5



yanvar-noyabr
Ulushi, %

2023-yil 44,2

2022-yil 37,6

2021-yil 41,7

